

DEVELOPMENT OF DIGITAL LITERACY SKILLS OF 6TH GRADE STUDENTS ON THE BASIS OF INTEGRATIVE TECHNOLOGIES

Zanjirova Khurshida Makhmudovna

Teacher of the Specialized School Named After Muhammad al-Khwarizmi

ABSTRACT	KEYWORDS
<p>This article highlights the importance of using interactive methods in teaching information technology. Effective interactive methods in teaching spreadsheets, Internet technologies, algorithmization and computer graphics are considered. This approach serves to increase the activity of students, develop independent thinking and form practical skills.</p>	<p>Future computer science teachers, digital educational technologies, digital educational platform, independent learning, independent learning competencies, pedagogical model, interactive methods, distance learning.</p>

Introduction

6-SINF O‘QUVCHILARINING INTEGRATIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RAQAMLI SAVODXONLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Zanjirova Xurshida Maxmudovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Elektron jadvallar, internet texnologiyalari, algoritmlash va kompyuter grafikasi mavzularini o‘qitishda samarali interfaol metodlar ko‘rib chiqilgan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar: bo‘lajak informatika o‘qituvchilari, raqamli ta’lim texnologiyalari, raqamli ta’lim platformasi, mustaqil ta’lim, mustaqil ta’lim kompetensiyalari, pedagogik model, interaktiv metodlar, masofaviy ta’lim.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash siyosatini davom ettirish, ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, o‘qitishning innovatsion shakl va uslublarini, eng yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofadan va dasturiy ta‘minot, didaktik ta‘minotlardan samarali foydalanib, o‘qitishning me‘yoriy asoslari yaratilmoqda. “Ta‘lim jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llagan holda ta‘limni boshqarishni avtomatlashtirish, zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan va xodimlarning malakasini baholashning yangi mexanizmlaridan foydalangan holda masofadan o‘qitish bo‘yicha yagona elektron platformani yaratish va uni ta‘limning barcha yo‘nalishlariga tatbiq etish, innovatsion faoliyat sohasida o‘qitishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta‘lim tizimiga joriy etish” ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu borada oliy ta‘lim muassasalarida aniq va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quv metodik, dasturiy-didaktik materiallarni yaratish va dasturiy ta‘minotini takomillashtirish imkoniyatlari kengayadi.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylangan. Shu sababli umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 6-sinf informatika kursi o‘quvchilarga dastlabki professional ko‘nikmalarni berishda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda ularning mantiqiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va axborotni qayta ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli bu bosqichda raqamli savodxonlikni rivojlantirish metodikasini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur bosqichda o‘quvchilar:

- elektron jadvallar bilan ishlash,
- internetdan foydalanish,
- algoritmik fikrlash,
- grafik muharrirlar bilan ishlash kabi muhim ko‘nikmalarni egallaydilar.

Raqamli savodxonlik va uning ahamiyati

Raqamli savodxonlik – bu o‘quvchilarning raqamli texnologiyalar yordamida axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va uzatish qobiliyatidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- axborotni izlash va saralash;
- axborotni tahlil qilish va baholash;
- raqamli vositalardan foydalanish;
- axborot xavfsizligi;
- raqamli kontent yaratish.

Raqamli savodxonlik o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning amaliy faoliyatini ham belgilaydi.

Integrativ yondashuv asoslari

Integrativ texnologiyalar ta‘lim jarayonida turli fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘qitishni nazarda tutadi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar bilimlarni alohida emas, balki tizimli va kompleks tarzda o‘zlashtiradilar.

Integratsiya quyidagi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi:

- fanlararo integratsiya;
- texnologik integratsiya;

- metodik integratsiya.

Masalan, informatika fanini boshqa fanlar bilan bog‘lash orqali o‘quvchilarda raqamli savodxonlikni samarali rivojlantirish mumkin.

1. Elektron jadvallar (Excel) va matematika

- formulalar
- funksiyalar
- diagrammalar

Elektron jadvallar orqali raqamli savodxonlikni rivojlantirish

- Katakchalar bilan ishlash → mantiqiy tartibni o‘rgatadi
- Formulalar → matematik fikrlashni rivojlantiradi
- Diagrammalar → vizual tafakkurni oshiradi

2. Internet mavzulari va ona tili, rus tili, ingliz tili

- matn yaratish
- axborotni tahlil qilish

Internet texnologiyalari orqali kompetensiya rivojlantirish

- qidiruv tizimlaridan foydalanish
- elektron pochta bilan ishlash
- Google Drive
- onlayn so‘rovnomalar

Muhim jihatlar:

- internet xavfsizligi
- shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish
- media savodxonlik

3. Algoritm va matematika , mantiq, fizika

- if, else
- sikllar
- masalalar yechish

Algoritm asosida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish

- algoritm tushunchasi
- shart operatorlari (if, else)
- sikllar (for, while)
- blok-sxemalar
- oddiy masalalar
- bosqichma-bosqich tushuntirish

4. Grafik muharrir va tasviriy san’at, tarix, biologiya

- rasm chizish
- dizayn yaratish

Kompyuter grafikasi orqali ijodkorlikni rivojlantirish

- Paint.NET dasturi
- rasm chizish
- effektlar berish
- qatlamlar bilan ishlash
- ijodkorlik oshadi
- dizayn fikrlash rivojlanadi

Kompetensiyaviy yondashuv

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim jarayonida o'quvchilarning egallagan bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llashga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar turli real hayotiy vaziyatlarda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradilar. Natijada ular nafaqat nazariy bilimlarga, balki ularni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatiga ham ega bo'ladilar.

Faol o'qitish metodlari

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun quyidagi interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- aqliy hujum (brainstorming);
- klaster usuli;
- loyiha asosida o'qitish;
- muammoli ta'lim.

Mazkur metodlar o'quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi, ularni mustaqil qaror qabul qilishga undaydi hamda o'z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi.

AKT vositalaridan foydalanish

Dars samaradorligini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Jumladan:

- kompyuter va planshet qurilmalari;
- elektron darslik va resurslar;
- taqdimot tayyorlash dasturlari;
- onlayn test va baholash platformalari.

Mazkur vositalardan foydalanish o'quvchilarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonini yanada interfaol va samarali qiladi.

Integrativ yondashuv natijasida o'quvchilar mustaqil ishlay boshlaydi, AKT ko'nikmalari rivojlanadi, mantiqiy fikrlash kuchayadi, ijodkorlik oshadi. Bu esa o'z navbatida amaliy kuzatuvlarda ham yaqqol ko'rsatadi. Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning darsga qiziqishi va faolligi sezilarli darajada oshadi.

6-sinf informatika fanidagi mavzular o'quvchilarning raqamli savodxonligini shakllantirishda muhim asos hisoblanadi. Integrativ texnologiyalar orqali bu jarayon yanada samarali bo'ladi. Shu sababli darslarni zamonaviy metodlar asosida tashkil etish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni
2. Abduqodirov A.A. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti // MonografiY. -T.-"FAN" nashriyoti, 2009. -145-b.

3. Begimkulov U.SH. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan. nom.diss. – Toshkent: TDPU, 2007. - 250 b
4. Mamarajabov M.E. Raqamlashtirilgan ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2022. 176 b.
5. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Mirsoliyeva M. Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik // O'quv-uslubiy majmua.– Toshkent, 2017. – 227 b.
6. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi “Informatika va axborot texnologiyalari” 6-sinf